



## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DO'STLIK BILAN BOG'LIQ MAQOLLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

**Yusupjanova Feruza Kurbanovna**

Farg'ona davlat universiteti Gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari  
kafedrasida katta o'qituvchisi

**Ibrohimova Zarnigor Nodirjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti lingvistik (ingliz tili) yo'nalishi 2-kurs  
magistranti

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-May 2023 yil

Ma'qullandi: 18-May 2023 yil

Nashr qilindi: 22-May 2023 yil

### KEY WORDS

*maqol, pand- nasihat, do'stlik, dushman, pul, sadoqat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida do'stlik bilan bog'liq maqollar va ularda qo'llanilgan leksemalar semantikasining o'zaro o'xshash va farqlim jihatlari xususis aso'z boradi. Shuningdek, maqolada do'stlikka oid xalq maqollari bu ikki millatning madaniyatini o'zida namoyon etishi to'g'risida ham fikr yuritilgan.*

Maqol xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri bo'lib, Grammatik jihatdan tugallangan, ko'rinishidan qisqa va ixcham, biroq o'zida bir olam ma'no ifodalovchi hikmatli iboradir. Maqollar ko'pincha poetik shaklda bo'lib, muayyan xalq donishmandligini o'zida aks ettiradi. Xususan, ular, avlodda avlodga xalqning turmush tajribalari, ma'naviy tuyg'ulari va go'zal fazilatlarini sodda shaklda ko'rsatib, insonlarni to'g'ri yo'lga boshlashni maqsad qiladi.

Dunyodagi har bir til egalarining maqollari mavzu jihatdan nihoyatda boy va rang-barangdir. Biroq ularning barchasi uchun aksar hollarda she'riy shakl va qofiyadoshlik, ma'joziy ma'nodorlik xarakterlidir. Ularda milliy qadriyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek tilshunosligida xalq maqollari bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, B. Rahmonov (1924), Sh. Jo'rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O'.Azimov, O'. Xolmatov (1941), M. Afzalov, S. Ibrohimov, R. Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B.Sarimsoqov shular jumlasidandir. Ular tilshunoslar, folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari bo'lib, har xil hajmda turli -tuman mavzulardagi maqollar to'plamlari nashr ettirdilar. O'zbek xalq maqollarining to'laqonli sinonimik lug'atini esa B.Jo'rayeva yaratdi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqollar muayyan har bir xalqning o'z hayotiy tajribasini va donoligini o'zida namoyon etishi bilan asrlar osha bizgacha yetib kelgan. Sir emaski, har bir xalqda do'stlik va vafo eng ulug' qadriyatlardandir. Ba'zi manbalarda haqiqiy do'stlik oilaga tenglashtirilsa, yana ba'zilarida chin do'st tug'ishgan aka -ukalardan ham afzalroqligi ta'kidlanadi. Nima bo'lganda ham bu singari fikrlar bugun paydo bo'lib qolmagan, ular juda uzoq yillar, hatto asrlar

davomida turli xalqlarda , turli jamiyatlarda turfa tajribalar, kechinmalar asosida shakllangan, sayqallangan va bizgacha yetib kelgan. Quyida ana shunday maqollarning o'zbek va ingliz tillaridagi namunalarini ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida do'stlik haqidagi quyidagi maqollar mashhur:

1.Do'st so'zini tashlama.

Tashlab boshing qashlama.

2.Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim.

3.Yuz so'm puling bo'lmasin,

Yuzta do'sting bo'lsin.

4. Do'st kulfatda bilinar.

Bu maqollarda do'stlik naqadar ulug'ligi va uning inson uchun nechog'lik zarurligi ifodalangan. Shuningdek, do'stlar har qanday boylikdan –da afzalroq ekanligi , haqiqiy do'st esa qiyinchilik damlarda bilinishi qisqa satrlarda ta'sirli izohlangan.

Umuman olganda, do'stlik ikki inson orasidagi samimiy, iliq va ishonchli munosabatni biladiradi. Do'stlikning sharti esa vafo va sadoqatdir. Do'stlik bor joyda xotirjamlik, mehr va ishonch bo'ladi, u insonning ruhiga quvvat bag'ishlaydi.

Ingliz til boyligida ham do'stlikka urg'u berilgan maqollar talaygina. Jumladan :

1. Old friend and old wine are best.

2. Only your real friends tell you when your face is dirty.

3. A friend to everybody is a friend to nobody.

4. A man who has friends must himself be friendly.

5. Friendship is like money, easier made than kept.

Bu maqollarda do'stlikka sodiqlik, uni davomiy bo'lishligi, do'sti bor insonning do'stlariga nisbatan do'stlarcha munosabatda bo'lishi kerakligi, shuningdek do'stlikni asrab –avaylash qiyin ekanligi to'g' risidagi ma'nolarni ko'rish mumkin.

Bir tildagi frazeologik birlikning boshqa bir tilda aynan tarjimasini topish imkonsiz. Biroq ularning ma'nosiga ko'ra o'xshashini aniqlash mumkin. Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi do'stlik haqidagi maqollarning bir – biriga yaqinlaridan namumalar keltiramiz va ularning semantikasini izohlaymiz:

**1. A friend's eye is a good mirror.**

O'zbek tilidagi ma'nosi: *Do'stning ko'zi yaxshi oynadir.*

O'zbek tilidagi muqobili: Do'st - do'stga oyna.

**2. A friend at hand is better than a relative in a distance.**

O'zbek tilidagi ma'nosi: *Masofadagi qarindoshdan qo'ldagi do'st yaxshiroq.*

O'zbek tilidagi muqobili:

Uzoqdagi qarindoshdan yoningdagi qo'shni yaxshi.

**3. False friends are worse than open enemies.**

O'zbek tilidagi ma'nosi: *Noto'g'ri do'stlar ochiq dushmanlardan ko'ra yomonroq.*

O'zbek tilidagi muqobili: *ahmoq do'stdan dono dushman yaxshiroq.*

**4. A friend in need is a friend indeed.**

O'zbek tilidagi ma'nosi: *Muhtojlikdagi do'st haqiqiy do'stdir.*

O'zbek tilidagi muqobili: Do'st kulfatda bilinar.

**5. A friend's frown is better than a fool's smile.**

O'zbek tilidagi ma'nosi: *Do'stning qovog'i ahmoqning tabassumidan yaxshiroq.*

O'zbek tilidagi muqobili: Do'st achitib gapirar – dushman kuldirib.

Izlanish davomida , ingliz tilida do'stlik mavzusiga oid maqollardan ayrimlari sinonimik qatorni hosil qilishining guvohi bo'ldik. Masalan,

**1. A) A friend is easier lost than found.**

O'zbek tilidagi ma'nosi: *Do'stni topishdan ko'ra yo'qotish osonroq.*

**B) Friendship is like money, easier made than kept.**

O'zbek tilidagi ma'nosi: *Do'stlik xuddi pulga o'xshaydi – saqlashdan ko'ra topish osonroq.*

Birinchi maqolda *a friend – do'st* so'zidan foydalanilgan. Ikkinchi maqolda esa *friendship – do'stlik* so'zi qo'llanilgan va kengroq ma'noni ifodalagan. Friend – turdosh ot. Friendship – mavhum ot.

Bu ikki maqolning grammatik jihatdan umumiyliigi shundaki, ikkisida ham sifatning qiyosiy darajasidan foydalanilgan. Bunda antonim so'zlardan ham foydalanilgan: topish – yo'qotish.

**2. A) A friend to all is a friend to none.**

**B) A friend to everybody is a friend to nobody.**

O'zbek tilidagi ma'nosi: *Hammaga do'st hech kimga do'st bo'lmaydi.*

Bu ikki maqolning grammatik jihatdan umumiyliigi shundan iboratki, ularda olmoshlar, xususan, bo'lishsizlik olmoshlari ishtirok etgan.

**XULOSA**

Yuqoridagi maqollardan ko'rinib turibdiki, do'stlik o'zbek xalqida ham , ingliz xalqida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek va ingliz tillarida do'st va do'stlik leksemalari ishtirok etgan maqollarning umumiy jihati shundaki, ulardachin do'stlik, dushmanning yoqimlisidan ko'ra kamchiliklarningni aytuvchi to'g'riso'z do'stning afzalligi , shuningdek uzoqdagi qarindoshdan ko'ra yoningda bo'lgan do'stning muhimroqligi singari g'oyalari mavjud. Do'stlik mavzusidagi ingliz maqollarida ko'proq sadoqat g'oyasi ilgari suriladi. Ularda do'stlikni asrash, chin do'st bo'lish, do'stlarga xushmuomala bo'lish fazilatlarini anglash mumkin. O'zbek tilida esa do'stlarning borligi ulug' ne'mat ekanligi, do'stsiz qolmaslik, hamisha do'stlarning kerakligi va ularni ko'paytirish zarurligi singari g'oyalarni yaqqol ko'rish mumkin. Bu ham Sharq va G'arbga xos bo'lgan o'ziga xoslik va mentalitet tushunchalari bilan bevosita bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. M. Usoqulov, B. Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. – Toshkent, Sharq, 2005, B281.
2. Safarov Oxunjon. O'zbek xalq og'zaki ijodi: pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent, Musiqqa, 2010, B297.
3. Alimova Z., Ibrohimova Z. O'zbek va ingliz xalqlarida to'y marosimi bilan bog'liq maqollarning lingvistik xususiyatlari. Vol.29(2022): Miasto Przyszlosci. P.327.
4. Shofqorov A. O'zbek va ingliz tilidagi maqollarda “do'stlik ” konsepti ifodalanishi. “Science and education” scientific journal. November 2020. P. 22.
5. G. Shukrullayeva G. O'zbek va ingliz xalq maqollarida do'stlik tushunchasi masalalari. “Scientific progress” scientific journal. Issue: 6. P684.
6. Alimova, Z. V. BORROWINGS-LINGUISTIC PHENOMENA. Theoretical & Applied Science. May, 2019. 367-370
7. Bradford Jones. Idioms and phrasal verbs.- Cambridge, 2019.

8. Wright, A.R. English Folklore, London, 2017, 132p.
9. [getmorevocab.com](http://getmorevocab.com)
10. [loverly.com](http://loverly.com)
11. [Englishteacher.eu](http://Englishteacher.eu)



**INNOVATIVE  
ACADEMY**